

Date: 17th January-2026

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANI TARIXIY ROMAN SIFATIDA

Gulimova Rixsiya

Urganch davlat universiteti

adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan “Yulduzli tunlar” romanining tarixiy roman yo‘nalishida tutgan o‘rni, tarixiy haqiqat va badiiy tasvirning o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, Pirimqul Qodirov, uslub, tarixiy haqiqat, roman badiiyati

Аннотация: В данной статье рассматривается роль романа «Звёздные ночи», его место в узбекской литературе, в жанре исторического романа, а также специфические аспекты исторической достоверности и художественного изображения.

Ключевые слова: Исторический роман, Пиримкул Кадиров, стиль, историческая достоверность, художественное оформление романа.

Abstract: This article discusses the role of the novel "Starry Nights", which has its place in Uzbek literature, in the historical novel genre, the specific aspects of historical truth and artistic depiction.

Keywords: Historical novel, Pirimqul Kadirov, style, historical truth, novel art

O‘zbek adabiyotida tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tarixiy roman XX asr boshlarida jadid adabiyoti ta’sirida shakllandi. Jadid yozuvchilari o‘z xalqining o‘tmishiga murojaat qilib, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdilar. Bu yo‘nalish jadal rivojlanib, o‘zbek xalqining o‘tmishi, milliy qahramonlari, tarixiy shaxslari va ularning ruhiy-axloqiy dunyosini badiiy talqin etishga xizmat qildi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek tarixiy romanchiligiga poydevor qo‘ydi. Qodiriy tarixiy voqealardan vosita sifatida foydalangan holda, millat taqdiri, ma’naviyat, insoniylik kabi g‘oyalarni ilgari surdi.

Shundan so‘ng Oybekning “Navoiy” romani, Odil Yoqubov, Mirmuhsin, Pirimqul Qodirov singari yozuvchilar tarixiy roman janrini badiiy jihatdan takomillashtirdilar. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ona lochin vidosi” kabi romanlarida tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga chuqur psixologik yondashuv, ularning tafakkur va ruhiyatini zamonaviy o‘quvchi uchun jonlantirish ustuvorlik kasb etadi.[1]

Ayniqsa, o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi va taraqqiyotida, milliy badiiy tafakkurning o‘ziga xos yutug‘i sifatida e’tirof etiladigan asar, shubhasiz, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidir.

Mazkur asar o‘zbek tarixiy romanchiligi taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, u o‘zbek adabiyoti tarixida ilk bor tarixiylik, badiiylik va psixologik tahlilning uyg‘un holda ifoda etilgan namunasi sifatida baholangan. Yozuvchi o‘z asarida Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini nafaqat sarkarda, balki inson, shoir, adib va vatanparvar shaxs sifatida



Date: 17th January-2026

badiiy talqin qiladi. Shu bois “Yulduzli tunlar” faqat tarixiy voqealarni ifoda etuvchi roman emas, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, insoniy qadriyatlarni sharaflavchi falsafiy asardir.

Tarixiy romanlarda muallifga ikki yo‘lining — tarixiylik va badiiylikning — nozik muvozanatini topa bilish kabi mas’uliyat yuklatiladi. Tarixiy faktning o‘zi adabiyot uchun xom material vazifasini bajarsa, yozuvchi uni badiiy tahlil va estetik talqin orqali san’at darajasiga ko‘tarib, go‘zal badiiy asar yaratishga musharraf bo‘ladi. Shuning uchun bu kabi tarixiy romanlarda haqiqat va xayol, fakt va obraz, ilm va badiiyat bir-birini to‘ldiruvchi unsurlar bo‘lib xizmat qiladi.

Romanning yaratilish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, roman eng dastlab 1978-yilda nashr etilgan. Roman ustida yozuvchi uzoq yillar izlanish ishlari olib borgan. U “Boburnoma”ni, tarixiy manbalarni, xususan, Xondamir, Hofiz Tanish Buxoriy asarlarini chuqur o‘rgangan. Shuningdek, Pirmqul Qodirov o‘zbek, fors, hind va turkiy tarixiy adabiyotlarni tahlil qilib, Bobur shaxsining ko‘p qirrali obrazini yaratgan. Bobur siymosini oddiy tarixiy shaxs sifatida emas, balki inson, ijodkor, vatanparvar, shoir va mutafakkir sifatida ko‘rsatadi. Yozuvchi Boburni romanning o‘zida bevosita Xondamir bilan suhbatini mahorat bilan tasvirlaydi. Ular o‘rtasidagi suhbatdan ma’rifatli, ilmshinavanda kishilar ekanligi suhbat mazmunidan ham sezilib, o‘quvchiga o‘zgacha bir zavq berib turadi. Suhbatlari davomida ikkisi uchun ham g‘oyatda qadrlil bo‘lgan tabarruk zot – Alisher Navoiyni yodga olishadi. Bobur Xondamirga Alisher Navoiydan keyin huvillab qolgan “Unsiya”ga kelib qayta ruh kiritgan kabi ko‘rinadi. Navoiy ijod qilgan joyda bo‘lish, Navoiyning ruhini his qilish Boburga o‘zgacha bir ruhiy quvvat ato etganligini muallif o‘quvchiga tushunarli tarzda tasvirlab bergan.

Yozuvchi o‘z intervyularidan birida shunday degan edi: “Men Boburni faqat sarkarda emas, balki yuragi bilan yozuvchi, qalbi bilan shoir sifatida ko‘rsatmoqchi bo‘ldim. Chunki Boburning yuragidagi og‘riq — bu xalqning og‘rig‘idir”. Demak, “Yulduzli tunlar” — tarixiy faktlarning badiiy talqinini chuqur psixologik tahlil bilan uyg‘unlashtirgan roman bo‘lib, u Pirmqul Qodirov ijodining cho‘qqisi hisoblanadi.[2]

“Yulduzli tunlar” romanida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, romanning katta qismidagi voqealar, eng avvalo, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”siga mutanosib. Pirmqul Qodirov bu asardan nafaqat tarixiy faktlar, balki Boburning ichki kechinmalari, hissiyotlari, g‘am-tashvishlarini ham o‘rganadi. Shu bois romanda faktlar emas, Bobur shaxsining ruhiy olami asosiy markazda turadi.

Asarda katta samimiyat bilann tasvirlangan Bobur, Qosimbek, Tohir, me’mor Fazliddin, Qutlug‘ Nigor xonim, Xonzoda begim, Mohim begim va boshqa o‘nlab obrazlar kitobxon qalbida naqshlanib qoladi. Yozuvchi hayotiy manzaralarni, o‘sha davr hayot va tarix haqiqatiga sadoqat saqlagan holda aniq va tiniq tasvirlab beradi.[3]

Yozuvchi bu ruhiy kechinmalarni chuqur psixologik tahlil orqali ifodalaydi. Bu jihatdan Qodirov asarida psixologizm o‘zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berganini adabiyotshunoslar ta’kidlaydilar.



Date: 17th January-2026



Adabiyotshunos O. Sharafiddinov yozganidek: “Pirimqul Qodirov o‘z tarixiy romanlari orqali nafaqat o‘tmishni qayta yaratdi, balki o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini uyg‘otdi”. Demak, “Yulduzli tunlar”da tarixiylik — faktlarda, badiiylik esa — inson ruhida mujassam. Yozuvchi bu ikki qatlamni uyg‘unlashtirish orqali o‘zbek tarixiy romanchiligini yangi badiiy bosqichga ko‘tardi. “Yulduzli tunlar” romanining badiiy kuchi — obrazlar tizimi va til-uslubidagi musiqiylikda namoyon bo‘ladi.

Asarda Bobur, Humoyun, Xonzoda, Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslar bilan bir qatorda xalq vakillari — oddiy askarlar, xizmatkorlar, dehqonlar ham tasvirlangan. Bu esa tarixiy voqealarga xalq ruhini singdirish imkonini beradi.

Asardagi obrazlar tizimi ikki qatlamli:

Tarixiy shaxslar: Bobur, Shayboniyxon, Humoyun, Xonzoda Begim, Qutlug‘ Nigor xonim.

Badiiy to‘qima obrazlar: xalq vakillari, askarlar, sodiq xizmatkorlar — ular milliy ruhni ifoda etuvchi badiiy vosita sifatida kiritilgan.

Shu bilan birgalikda asarda tasvirlangan tabiat tasvirlari ham bevosita har bir qahramonning ruhiy holatini aks etishga, uning ichki holatini yanada chuqurroq anglashimizga xizmat qilgan. Quyidagi misolda xuddi shu kabi tasvirni ko‘rib chiqamiz: “...So‘rab-surishtrishlardan so‘ng bular – Bobur tomonidan yo‘llarga qo‘yilgan qoravullar ekani ma‘lum bo‘ldi-yu, Xonzoda begim birdan yengil tortdi. Qoravullarning boshlig‘i mehmonlarning oldiga tushib, ularni Qunduzning baland bir joyidagi qal‘aga boshlab borar ekan, endi atrof Xonzoda begimga allanechuk boshqacha ko‘rinib ketdi. Moviy tog‘lardan esayotgan shabada yuzini yoqimli silab o‘tdi. Amudaryo bo‘yidagi o‘rmonlar uzoqdan nechog‘lik xushmanzara ko‘rinishini u endi payqadi. Qunduzning ilgarigi xonlari bahavo bir joyda qurdirgan mustahkam qal‘a va uning ichidagi qasr ham Xonzoda begimga uzoqdan xiyla fayzli ko‘rindi. Bu qasr ichida u hozir o‘zining suyukli inisi bilan uchrashishini o‘ylaganda shodligi ko‘ksiga sig‘may entikdi”.

Yuqoridagi tasvirda Boburning Shayboniyxon haramiga majburan ketgan va inisini qutqarish uchun bu ishni o‘z zimmasiga olgan jasoratli Xonzoda begimning o‘z inisining yoniga qaytishi tasvirlangan. Shayboniyxon haramida shuncha yilini o‘tkazgan Xonzoda begim Shayboniyxonning Shoh Ismoil safaviy bilan jangidan keyingi mag‘lubiyati va o‘limidan keyin undan ko‘rgan o‘g‘ilchasi Xurramshoh bilan birgalikda shoh inisi Bobur yoniga kelishidagi kayfiyati tabiat tasviri bilan shunday uyg‘un tarzda tasvirlanganki, yozuvchi buni bevosita Xonzoda begimning nigohlarida aks ettiradi. Atrof unga har galgidan ko‘ra chiroyliroq, shabada ham mayinroq yuziga tega boshlagan edi. Sababi esa necha yillik ayriliqdan keyin o‘z yaqini bilan uchrashish unga barcha narsalarni shunday jozibali his qildirmoqda edi.

Asarda shu va shunga o‘xshash o‘rinlar bir nechta o‘ntalab topiladi. Ularning barchasida muallifning mahorati o‘ziga xos tarzda ko‘rinadi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, asarning barcha qismlarida yozuvchi olis o‘tmishni, Boburning hayotini, tarixiy voqealarni san‘atkorona tasvirlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asar keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, uni

Date: 17th January-2026

o'quvchi har bir kitobxon qalbidan chuqur joy olishi shubhasizdir. Bu asar orqali o'zlikni anglash, vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, milliy g'ururni anglashga o'ziga xos tarzda xizmat qilishiga shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: SMI-ASIA, 2009
2. To'xliyev B. O'zbek roman poetikasi. – Toshkent, 1983
3. Begmatov E. Tarixiy romanlarda badiiylik masalari. – Toshkent, 1990
4. Mirvaliyev A. Pirimqul Qodirov ijodining badiiy olami, – Toshkent, 2015
5. www.wikipedia.com
6. www.inlibrary.uz

